

Biz o'z sinfdoshlarimiz bilan birgalikda ishladik, erishgan yutuqlarimiz o'qishga qiziqishimiz, do'stligimiz va bir-birimizga samimiy munosabatimiz tufaylidir. Men sizlar bilan faxrlanaman! Keling o'zimiz va sinfdoshlarimizni olqishlab qo'yamiz! Barakalla! Ofarin!

12-dars (11-mavzu). Tabiat qishga qanday tayyorlanadi?

Dars maqsadlari:

- 1. Ta'limiy:** o'quvchilarda tabiat qishga qanday tayyorlanishi haqida bilimlarni shakllantirish; mustaqil javoblarni shakllantirish ko'nikmalari.
- 2. Tarbiyaviy:** o'quvchilarda bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishini tarbiyalash, o'qituvchi tomonidan ularga do'stona munosabatda bo'lishini ta'minlash.
- 3. Rivojlantiruvchi:** o'rganilayotgan hodisalarni tevarak-atrofdagi hayotda qo'llash bo'yicha ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarning intellektual sifatlarini, bilish qiziqishlarini shakllantirish.

Kirish bosqichi (5 daqiqa). O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, o'qituvchi elektron jurnalga darsdagi va darsda bo'lmagan o'quvchilarni qayd qiladi.

Bu muhim! O'quv yechimni topishga qaratilgan yordamlar

O'quv faoliyatining samarali natijaga olib kelishi uchun, 2 ta yo'l mavjud:

- ◆ O'qituvchi o'zi yechimni ko'rsatib beradi;
- ◆ O'qituvchi topshiriq bajarilishini boshqaradi (jalb etadi).

Yechim/javobni topishga yordam berish usullari:

- 👉 O'quv materialini fikran tushunib yetishni osonlashtirish;
- 👉 O'quvchi to'g'ri deb o'ylagan yechim/javobni tekshirib ko'rishiga yo'l qo'yish;
- 👉 O'rganish (o'zlashtirish) va ruhiy ishlash (mehnat) usullariga o'rgatish.
- 💡 O'qituvchi o'quv materialini bo'limlarga bo'lishi va mavhum mavzularga ko'rgazmali tus berishi kerak.

✚ Yechim/javobni tekshirib ko'rish imkoniyatini berish. O'qituvchi o'quvchiga yechim/javobni tekshirib ko'rish yo'lini topishga turtki berishi kerak.

U o'quvchiga buning uchun zaruriy vaqt va imkoniyatni beradi. O'qituvchi o'quvchiga yechim/javobni agar uning o'zi yechimni topishga astoydil harakat qilgan bo'lsagina berishi mumkin. U o'quvchiga yechim/javobni o'zi topishi uchun fursat va imkoniyat berishi kerak.

Mavjud bilimlarni faollashtirish. O'qituvchi oldindan tayyorlangan kartochkalarda tasvirlangan kiyimlar turlarini o'quvchilarga ko'rsatadi va ular qaysi faslda kiyilishini aytishlari kerak. O'quvchilar nega mazkur kiyimni aynan shu faslda kiyish kerakligini tushuntirib berishlari so'raladi.

Shundan so'ng o'qituvchi bugungi dars mavzusini aytadi va uni tushuntirishga kirishadi.

Asosiy qism (25 daqiqa).

Tushuntirish uchun material.

Rasmda qanday jonivorlar tasvirlangan? Bu hayvonlar qishni qanday o'tkazishi haqida so'zlab bering. Mazkur topshiriq jamoada bajariladi.



Ayting-chi, rasmdagi hayvonlardan qaysilarini va qayerda ko'rgansiz?
Hayvonot bog'iga kim bilan borgansiz?

Mazkur savol-javob o'quvchilarda nutqni rivojlantiradi. O'tgan darslarda o'rganganlari bilan bog'liq o'zgarishlarni mantiqan bog'lay olish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Darslikning 34-betidagi topshiriqni bajaramiz. Bu jonivorlardan qaysilari qishki uyquga ketadi? Mazkur topshiriq juftlikda bajariladi.



O'qituvchi uchun javob: ayiq.



Bu qushlardan qaysilari qishda janubga uchib ketadi?

O'qituvchi uchun javob: laylak.

Rasmdagi hayvonlar qanday inda yashashini ayting. Bunday inlarda yana




qanday hayvonlar yashaydi?

Mazkur topshiriqni juftlikda bajarish va birgalikda muhokama qilish mumkin.

Quvnoq daqiqalar:

Shundan so'ng, o'quvchilarning charchab qolmasligi uchun harakatlanuvchi mashq yoki barmoq/ko'zlar gimnastikasini bajarishingiz mumkin.



Mustahkamlash qismi:

Topshiriqni bajarishda davom ettiramiz.




Qishda **kunlar qisqaroq, tunlar uzoqroq** bo'ladi. Sovuq tushib, daryo va ko'llar muzlaydi.

Qaysi rasmda qish tasvirlangan? Buni qanday belgilarga qarab bildingiz? Topishmoqlar javobini ayting va javobingizni izohlang.



Ayoz bobo novvot soldi,
Olgan edim, qo'lim qotdi.
(Muz)



Yozib kumush poyandoz,
Sovuqda elar shakar.
Sharbatsiz yasar novvot,
Toping siz bermay shahar.
(Qor)

Baholash va yakunlash qismi (5 daqiqa):

Ayting-chi, bugun biz nimani o'rgandik? Yana qaysi fanlarda shu mavzuga oid ma'lumotlar olgansiz? Savol-javob asosida umumlashtirish amalga oshiriladi.

Biz o'z sinfdoshlarimiz bilan birgalikda ishladik, erishgan yutuqlarimiz o'qishga qiziqishimiz, do'stligimiz va bir-birimizga samimiy munosabatimiz tufaylidir. Men sizlar bilan faxrlanaman! Keling o'zimiz va sinfdoshlarimizni olqishlab qo'yamiz! Barakalla! Ofarin!

13-dars (12-mavzu). Qish hodisalari

Dars maqsadlari:

1. Ta'limiy: o'quvchilarda tabiat qishga qanday tayyorlanishi haqida bilimlarni shakllantirish; mustaqil javoblarni shakllantirish ko'nikmalari.

2. Tarbiyaviy: o'quvchilarda bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishini tarbiyalash, o'qituvchi tomonidan ularga do'stona munosabatda bo'lishini ta'minlash.

3. Rivojlantiruvchi: o'rganilayotgan hodisalarni tevarak-atrofdagi hayotda qo'llash bo'yicha ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarning intellektual sifatlarini, bilish qiziqishlarini shakllantirish.

Kirish bosqichi (5 daqiqa). O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, o'qituvchi elektron jurnalga darsdagi va darsda bo'lmagan o'quvchilarni qayd qiladi.

Tavsiya! O'quvchilarni guruhga qanday bo'lish kerak?

O'quvchilarni jamoalarga ajratishda qur'a tashlash eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Siz bolalarni o'zlari xohlagancha bo'linishlariga ruxsat bersangiz, hamma a'lochilar bilan bir jamoada bo'lishga harakat qiladi va hech kim faol bo'lmaydigan bola bilan hamkorlik qilishni xohlamaydi.

Agar o'qituvchi o'z xohishi bilan o'quvchilarni jamoalarga ajratsa, norozilik kelib chiqishi mumkin. Bu, ayniqsa, shaxsiy munosabatlar juda muhim bo'lgan o'spirinlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarni